



Sherobodda investitsiya va shaharsozlik loyihalari bilan tanishildi





Shu yerning o'zida, M-39 avtomagistral yo'l yoqasida qurilishi rejalashtirilgan avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish nuqtasi, motel, savdo do'konlari hamda mehmonxona binosini qurish bo'yicha loyihalar taqdimot qilindi.



Shundan so'ng viloyat hokimi tumanda "Laziz Avto Innavigator" UK tomonidan tashkil etilgan va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan avto maktab faoliyati bilan tanishdi. Maktabda bugungi kunda 10 ta guruhda 240 nafar o'quvchi tahsil olib kelmoqda. Viloyat rahbari o'quvchilar bilan suhbatlashib, ularning avto boshqaruvi bo'yicha bilimlarini sinadi.

Tashrif yakunida "Imronbek Rishodbek" MCHJ tomonidan qurilgan ko'p qavatli uy-joylar bilan ham tanishilib, shu yerning o'zida konsalting kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan tumanning investitsiya va shaharsozlik loyihalari taqdimot qilindi.



Mas'ullarga istiqbolli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tashabbuskorlarni jalb qilish, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish va tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.

